

Xalq shoiri Mirtemir tavalludining 110 yilligi nishonlandi

O'zbek xalq shoiri Mirtemir tavalludining 110 yilligi munosabati bilan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan "Mirtemir ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusida respublika ilmiy onlayn konferensiyasi o'tkazildi.



Unda Institut xodimlari, akademiklar, yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchilar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, taniqli yozuvchi va shoirlar ishtirok etdi.

Konferensiyaga taqdim etilgan ma'ruzalarning mavzulari rang-barang bo'lib, ularda Mirtemir ijodining turli qirralari, shoir ijodining bugungi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, davr muammolarining shoir ijodida aks etishi, Mirtemir she'riyatidagi tabiat, do'stlik, sevgi va sadoqat, xalqlar do'stligi, shogirdlariga nisbatan mehribon ustoz singari jihatlari muhokama qilindi.

Ilmiy ma'ruzalardan so'ng shoir, yozuvchi va olimlar Mirtemir haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

